

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING SHAKLLARI, TURLARI VA USULLARI**Ochilova Zilola Joxan qizi****Toshkent davlat yuridik universiteti****Moliyaviy-huquqiy monitoring fakulteti Magistranti****ochilovazilola13@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10223957>**

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar moliyaviy nazorat organlari faoliyatini ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Davlat boshqaruvi va moliyaviy tizimining samarali nazorati bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Moliyaviy nazorat davlatning iqtisodiy ko'rsatgichlarini o'sishida muhim o'ringa ega hisoblanadi. Moliyaviy nazoratni samarali tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun nazorat ostiga olingan moliyaviy nazorat obyektiga mos bo'lgan moliyaviy nazoratning shakllaridan, usullaridan va turlaridan foydalanish lozim.

A.V. Vahobov, T.S. Malikovlar amalga oshirish reglamentiga ko'ra: majburiy (tashqi) va tashabbuskorli (ichki) turlarga bo'ladilar. Majburiy moliyaviy nazorat jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan mustaqil nazoratchilar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy tarzda soliqlarning o'z vaqtida va to'g'ri to'lanayotganligini, budgetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligi, korxona va tashkilotlarning buxgalteriya va boshqa hisobotlari ustidan asosan auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi.

Tashabbuskorli moliyaviy nazorat esa moliyaviy nazorat sohasidagi qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilmagan bo'lsa-da, strategik hamda taktik maqsadlarga erishish va moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan moliyaviy nazorat turidir.

Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, moliyaviy nazorat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida, ya'ni Budget kodeksida moliyaviy nazoratning usullari sifatida taftish, tekshirish (budget to'g'risidagi qonunchilikning avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilish hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida¹ amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Davlat moliyaviy nazoratining ushbu shakllarining tahliliga ham qisqacha to'xtalib ketadigan bo'lsak, tekshirish – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga ularning qanchalik rioya qilayotganligini va qonunchilik hujjatlarini bajarayotganini nazorat qiluvchi organlar tomonidan bir martalik nazorat qilishidir. Moliyaviy nazorat shakli sifatida taftish moliyaviy nazoratninf muhim ahamiyatli shakli bo'lib, o'zining maqsadi va obyektlari hamda moliyaviy nazoratni samarali ta'minlay olishi jihatidan eng muhim nazorat shakli deyishimiz mumkin. Taftish – nazorat qiluvchi organ tomonidan taftish qilinayotgan moliyaviy nazorat subyektining xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini va asoslilagini, ushbu subyektlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatalrini, hisobotlarini o'rganish, ularda aks ettirilganlarni tekshirish va taqqoslashdan iborat bo'lgan moliyaviy nazorat harakatlari majmuidir. Tekshirish va taftishni qiyoslaydigann bo'lsak, biri nazoratning torroq ko'rinishi bo'lsa, ikkinchisi nazoratning kengroq olib borilishini anglatuvchi tushunchadir.

Moliyaviy nazoratning shakllarini ko'rib chiqishdan oldin, bu tushunchaning o'ziga ta'rif berib o'tsak. Moliyaviy nazoratning shakllari – nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga

¹ O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi [173-modda](#).

oshiriladigan nazorat funksiyasini bajarish uchun mo'ljallangan nazorat harakatlarini aniq ifodalash hamda tashkil etishning uslublaridir. Moliyaviy nazorat shakkari sifatida ilmiy adabiyotlarida va qonunchilik hujjatlarda quyidagilarni ko'rsatib o'tgan: dastlabki moliyaviy nazorat, joriy moliyaviy nazorat va yakuniy moliyaviy nazorat.

Bu tasniflanish bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan nazorat harakatlarini ifoda etib, ularning uzliksizligini ko'rsatadi. Turlarga bo'lishda nazorat harakatlarining amalga oshirish vaqt hamda ularni o'tkazishning ayrim o'ziga xos jihatlari asos qilib olingan.

Dastlabki moliyaviy nazorat moliyaviy operatsiyalarning bajarilishidan oldin ro'y berganligi uchun o'zida ogohlantiruvchi xususiyatni aks ettiradi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy faoliyati davomida yuz berishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni sodir etishdan ogohlantiradi. Qonunchiligmizga ko'ra dastlabki moliyaviy nazoratni moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilguncha g'aznachilik bo'linmalari moliya organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bajaradi. Ushbu moliyaviy nazoratning ahamiyatli jihatini qonunbuzarliklarning oldini olinishida, xato va kamchiliklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, yo'qotishlarning yuz bermasligida deb aytishimiz mumkin.

Joriy moliyaviy nazorat avvalgisidan farqli ravishda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida o'tkaziladi. Ushbu nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan moliyaviy nazoratning subyektlari sifatida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organalari namoyon bo'ladi. Adik Lining fikricha, "joriy moliyaviy nazorat operativ boshqarish va tartibga solishning jarayoning uzviy qismidir²".

Budjet qonunchiliga ko'ra moliyaviy nazoratni usullarga bo'lish ikki xil asos bo'yicha bo'ladi. Hujjatlarni tekshirish hajmiga qarab: yoppasiga va tanlov asosidagi nazoratga bo'linadi.

Yoppasiga nazoratda tekshirilishi belgilangan davr uchun barcha turdag'i hujjatlar: buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlar nazorat ostiga olinadi.

Tanlov asosidagi nazoratda esa muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning faqatgina ayrim qismlari nazorat qilinadi.

Moliyaviy nazoratning yo'naltirilgan maqsadiga va predmetiga qarab quyidagi:

- ❖ kompleks nazorat;
- ❖ mavzuli nazorat;
- ❖ muqobil nazorat usullariga bo'linadi.

Kompleks nazorat – moliyaviy nazorat obyekti hisoblanmish korxona, tashkilot va muassasaning moliyaviy va xo'jalik faoliyatining barcha yo'nalishlarni har tomonlama nazorat qilish tushuniladi. Ushbu nazorat turida korxona, tashkilot va muassasaning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarining butligi hamda ulardan maqasdli foydalanish, buxgalteriya hisobi, hisobotinign holati va sifati kabi jihatlar nazorat ostiga olinadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, nazoratning tor texnikaviy va texnologik masalalari uchun ushbu sohaning mutaxassislari jalb etiladi. *Mavzuli nazorat* – bir turdag'i korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ma'lum bir qismi uchun, jumladan, xo'jalikka xos bo'lgan tipik kamchiliklar va qonun buzilishlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish maqsadida tashkil etiladigan moliyaviy nazorat usuli hisoblanadi. *Muqobil nazorat* – operatsiyalar yagonaligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va turli davlat moliyaviy nazorati obyektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni o'z ichiga olgan tekshirish, bundan tadbirkorlik

² Li A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Darslik/ A.Li. Mas'ul muharrir. M.X. Rustambayev. – 2-nashri (qayta ishlangan va to'ldirilgan) – T.: 2006. 115-bet.

subyektlari mustasno³. Muqobil nazorat o'zaro bog'liq bo'lgan turli xo'jalik yurituvchi subyektlarda yoki bir xo'jalik yurituvchi subyektning turli bo'linmalaridagi moliyaviy hujjatlarni taqqoslash orqali amalga oshiriladi hamda ushbu nazorat turida xo'jalik yurituvchi subyektlarga bormasdan turib o'tkaziladi. Muqobil nazorat jinoyat ishlari bo'yicha yoxud nazorat qiluvchi organning qarori asosida o'tkaziladi hamda muqobil tekshirish predmetiga taalluqli bo'lgan hujjatlarga talab qilib olinadi va tekshiriladi.

Moliyaviy nazoratning turli xil asoslarga ko'ra turlarga, usullarga va shakllarga bo'linishini tadqiqotchi olimlarning qarashlari hamda qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgani bo'yicha ko'rib chiqdik. Moliyaviy nazoratni samarali, maqsadli tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishda moliyaviy nazorat obyekti, subyektining va ularning faoliyatining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish hamda shu asosda nazorat usullari va turlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi 01.01.2014. <https://www.lex.uz/docs/-2304138>
3. Li A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Darslik/ A.Li. Mas'ul muharrir. M.X. Rustambayev. – 2-nashri (qayta ishlangan va to'dirilgan) – T.: 2006. 115-bet.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (Toshkent Til Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012.
5. <https://lex.uz>
6. <https://library-tsul.uz>;



³ O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi 173-modda.